# X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

**Foyda.** Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra 2022 yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 5207,5 mlrd. so‘m miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi. 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 49,5 mlrd. so‘mga ko‘paygan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,0 foizni tashkil qildi.

**2022 yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari**

| | *Foyda, zarar (+-), mlrd. so‘m* | *2021 yilning yanvar-noyabriga nisbatan % da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **5207,5** | **101,0** |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | - | - |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | - | - |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 5070,5 | 110,3 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 57,2 | 11,6 |
| Suv bilan ta’minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish | -15,6 | - |
| Qurilish | 2,1 | 49,3 |
| Savdo | 3,3 | 5,4 m. |
| Tashish va saqlash | 87,8 | 140,8 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | - | - |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 2,0 | 96,4 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar | 0,2 | 61,5 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | - | - |

2022 yilning yanvar-noyabr oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘sishi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (46,8 mlrd. so‘mga), “O‘zkimyosanoat” AJ (59,8 mlrd. so‘m), “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati (156,1 mlrd. so‘m), “Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari” AJ (11,3 mlrd. so‘m)ga to‘g‘ri keladi. Foydaning pasayishi “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati AJ (0,1 mlrd. so‘m) hisobiga to‘g‘ri keldi.

2022 yilning yanvar- noyabr oylari yakunlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining foydasi 5295,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7% tashkil etadi.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Nukus shahriga 4980,6 mlrd. so‘m (jami foydaning 94,1 %), Taxiatoshga 48,4 mlrd. so‘m (0,9 %), Qo‘ng‘irotga 216,8 mlrd. so‘m (4,1 %), Nukus tumaniga 11,3 mlrd. so‘m (0,2 %) va Ellikqal’a 12,5 mlrd. so‘mdan 0,2 %) to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, Shumanay tumanida yirik tijorat korxonalari mavjud emasligi sababli, ushbu tuman bo‘yicha foyda (zarar) miqdori keltirilmagan.

**2022 yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

| | *Foyda, zarar (+-), mlrd. so‘m* | *2021 yilning yanvar- noyabriga nisbatan % da* |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **5207,5** | **101,0** |
| Nukus sh. | 4911,3 | 109,5 |
| *tumanlar:* | | |
| Amudaryo | 7,7 | 2,5 m. |
| Beruniy | 1,8 | 2,5 m. |
| Qorao‘zak | 3,9 | 142,7 |
| Kegeyli | 1,5 | 85,9 |
| Qo‘ng‘irot | 216,8 | 146,5 |
| Qonliko‘l | 1,4 | 43,3 |
| Mo‘ynoq | - | |
| Nukus | 11,3 | 132,1 |
| Taxiatosh | 47,6 | 9,8 |
| Taxtako‘pir | -10,2 | |
| To‘rtko‘l | 1,6 | 128,0 |
| Xo‘jayli | -1,9 | |
| Chimboy | 2,2 | 81,8 |
| Ellikqal’a | 12,5 | 86,0 |

**Zararlar.** 2022 yilning yanvar-noyabr oylarida 9 ta korxona va tashkilotlar tomonidan 87744,7 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘yilgan. Zararning asosiy qismi , “Uzbekistan Airports“ AJ 68289,6 mln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi 1900,0 mln. so‘m, “Dori darmon“ AJ 772,1 mln. so‘m, “O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat vazirligi” 92,1 mln. so‘m va boshqalar 16690,9 mln. so‘m hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**2022 yilning yanvar-noyabrida zarar koʻrgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
*(jamiga nisbatan % da)*




2022 yil yanvar-noyabr oylarida 9 ta korxona oʻz faoliyatini zarar bilan yakunlagan boʻlib, koʻrilgan zararning umumiy miqdori 87744,7 mln. soʻmni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp zarar miqdori. Ombor xoʻjaligi va yordamchi transport faoliyati 68289,6 mln. soʻm (korxonalar soni 1 ta, 77,8 foiz), Suv bilan taʼminlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizasiya qilish 15598,3 mln. soʻm (korxonalar soni 1 ta, 17,8 foiz), Elektr gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash 895,7 mln. soʻm (korxonalar soni 2 ta, 1,0 foiz), Ulgurji va chakana savdo 949,6 mln. soʻm (korxonalar soni 2 ta, 1,1 foiz), Professional, ilmiy va texnik faoliyat 9,5 mln. soʻm (zarar koʻrgan korxonalar soni 1 ta, Respublika boʻyicha jami zarar miqdorining 0,0 foizi) hissalariga toʻgʻri keldi.

**2022 yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | Korxona-lar soni | Zarar so‘mmasi | |
|---|---|---|---|
| | | mln. so‘m | jamiga nisbatan % da |
| **Jami** | **9** | **87744,7** | **100,0** |
| Savdo | 2 | 949,6 | 1,1 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 1 | 1900,0 | 2,2 |
| Suv bilan ta’minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizasiya qilish | 1 | 15598,3 | 17,8 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | 2 | 895,7 | 1,0 |
| Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | 1 | 68289,6 | 77,8 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 1 | 9,5 | - |
| Qurilish | 1 | 102,0 | 0,1 |

**2022 yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
*(jamiga nisbatan % da)*



**2022 yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida zarar kurgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da* | *Zarar so‘mmasi, mln. so‘m* |
|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **9** | **100,0** | **87744,7** |
| Nukus sh. | 5 | 79,0 | 69340,8 |
| Taxiatosh | 1 | 0,9 | 803,6 |
| Taxtako‘pir | 1 | 17,8 | 15598,3 |
| Xo‘jayli | 1 | 2,2 | 1900,0 |
| Amudaryo | 1 | 0,1 | 102,0 |

**Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorlik holati**[1]

2022 yilning 1 dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 2117,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 17,1 mlrd. so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,8 foizini tashkil etgan. Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2021 yilning 1 dekabriga nisbatan 118,6 % ni tashkil etib, 26,8 mlrd. so‘mga ko‘paygan.

**2022 yil 1 dekabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi** *(jamiga nisbatan % da)*

| *Debitor qarzdorlik jami* | *%* |
|---|---|
| “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ; | 52,4 |
| “O‘zpaxtasanoat” AJ | 0,6 |
| “O‘zdonmahsulot” AJ | 3,7 |
| “O‘zkimyosanoat” AJ | 1,2 |
| ”Hududiy elektr tarmoqlari” AJ | 2,1 |
| “O‘zbekneftegaz” AJ | 0,3 |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ | 1,1 |
| O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi | 0,03 |
| MCHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo'shma korxonasi | 23,4 |
| “Ustyurt qıdıruv-burgulash boshqarması” MCHJ | 2,2 |
| “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Azıya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi | 0,7 |
| “Lanextrakt” MCHJ | 0,7 |
| Boshqalar | 11,6 |

[1] *Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

2022 yil 1 dekabr holatiga jami debitor qarzdorliklar hajmi 2117,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi, debitor qarzdorliklarning asosiy qismini “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ 1109,4 mlrd. so‘m (52,4 foiz), “O‘zpaxtasanoat” AJ 12,5 mlrd. so‘m (0,6 foiz), “O‘zdonmahsulot” AJ 78,8 mlrd. so‘m (3,7 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari"AJ 44,6 mlrd. so‘m (2,1 foiz), “O‘zkimyosanoat” AJ 25,2 mlrd. so‘m (1,2 foiz), O‘zbekneftegaz” AJ 6,1 mlrd. so‘m (0,3 foiz), “O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ 22,3 mlrd. so‘m (1,1 foiz), Mchj "Uz-Kor Gas Chemical" qo‘shma korxonasi 496,1 mlrd. so‘m (23,4 foiz) “Ustyurt Qidiruv-Burgulash Boshqarmasi” Mchj 47,7 mlrd. so‘m (2,2 foiz) “Zarubejneftegaz-Gpd Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi 14,8 mlrd. so‘m (0,7 foiz) "Lanextrakt" Mchj shaklidagi qo‘shma korxonasi 14,5 mlrd. so‘m (0,7 foiz) O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi 0,6 mlrd. so‘m (0,03 foiz) hamda boshqalar 244,6 mlrd. so‘m (11,6 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.

**2022 yil 1 dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

| | ***Jami, mlrd. so‘m*** | ***shundan:*** | | | ***Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, % da*** |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ***xaridor va buyurtma-chilar*** | ***yetkazib beruvchilarga va pudratchi-larga berilgan avanslar*** | ***ichki idora-viy*** | |
| **Jami** | **17,1** | **8,2** | - | **1,1** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 16,5 | 7,6 | - | 1,1 | 96,5 |
| Tashish va saqlash | 0,6 | 0,6 | - | | 3,5 |

**2022 yil 1 dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

| | *Jami, mlrd. so‘m* | *shundan:* | | | *Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *yetkazib beruvchilar va pudratchi-larga* | *mehnatga haq to‘lovlar bo‘yicha qarz* | *Byudjetga davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz* | |
| **Jami** | **2,7** | **1,3** | **1,4** | **-** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 1,2 | 1,2 | | - | 44,4 |
| Tashish va saqlash | 0,1 | 0,1 | - | - | 3,7 |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 1,4 | | 1,4 | - | 51,9 |

**2022 yilning 1 dekabr holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)**

| *Kreditor qarzdorlik, jami* | % |
|---|---|
| “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ; | 19,1 |
| “O‘zpaxtasanoat” AJ; | 0,1 |
| “O‘zdonmahsulot” AJ | 1,2 |
| “O‘zkimyosanoat” AJ; | 0,5 |
| O'zbekiston to'qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi | 4,6 |
| “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ | 3,6 |
| “O‘zbekneftegaz” AJ | 1,9 |
| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ | 1,9 |
| “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Azıya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi | 56,5 |
| “Ustyurt qıdıruv-burgulash boshqarması” MCHJ | 1,0 |
| “Lanextrakt” MCHJ | 0,7 |
| MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo'shma korxonasi | 2,4 |
| Boshqalar | 6,5 |

2022 yilning 1 dekabr holatiga jami kreditor qarzdorliklar hajmi -3660,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi, kreditor qarzdorliklarning asosiy qismi “Issiqlik elektr stansiyalari”AJ -701,0 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 19,1 %), “O‘zpaxtasanoat” AJ -3,3 mlrd. so‘m (0,1 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ -131,8 mlrd. so‘m (3,6 %), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ -70,1 mlrd. so‘m (1,9 %), “O‘zdonmahsulot” AJ -45,3 mlrd. so‘m 1,2 %), “O‘zkimyosanoat” AJ -19,1 mlrd. so‘m (0,5%), “O‘zbekneftegaz” AJ -68,1 mlrd. so‘m (1,9 %), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi -169,0 mlrd. so‘m (4,6 %) “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Azıya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi -2067,4 mlrd. so‘m (56,5 %) MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo‘shma korxonasi -87,5 mlrd. so‘m (2,4 %),“Ustyurt qıdıruv-burgulash boshqarması” MCHJ -37,4 mlrd. so‘m (1,0 %), Lanextrakt” MCHJ -26,3 mlrd. so‘m (0,7%) hamda boshqalar -234,4 mlrd. so‘m (6,5 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.